

PREZUMPSIYA VA PREYUDITSIYANING O‘ZIGA XOS TOMONLARI TAHLILI

Abduraxmonova Gulimoh Abdullayevna

Toshkent davlat yuridik universiteti biznes
huquqi va sud himoyasi fakulteti talabasi

Email: abduraxmonovagulimoh@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada prezumpsiya va preyuditsiya atamaları ma’nosi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari, xalqaro va milliy qonunchilikda qo‘llash amaliyotlari batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Prezumpsiya, preyuditsiya, huquqiy prinsiplar, hukm, sud pretsedenti.

KIRISH

Avvalo, prezumpsiya tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, huquqdagi **prezumpsiya** deganda, huquqiy munosabatlarda muayyan bir holat yoki faktning mavjudligini taxmin qiluvchi faraz tushuniladi. “Prezumpsiya” lotincha “*praesumptio*” so‘zidan olingan bo‘lib, taxmin, faraz, umid degan ma’nolarni anglatadi. Bunga ko‘ra biror-bir faktning noto‘g‘rligi isbotlanmaguncha, u to‘g‘ri deb hisoblanadi. Mazkur tushunchaga **Sh.A.Saydullayev** quyidagicha ta’rif beradi: “*Huquqiy prezumpsiya – nazarda tutilayotgan va mavjud bo‘lgan faktlar orasidagi aloqalarga asoslangan holda muayyan faktlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi faraz. Prezumpsiya – aksi tasdiqlanmaguncha biror dalilni yuridik jihatdan to‘g‘ri deb hisoblash*”¹. **Fikrimizcha**, prezumpsiyada muayyan bir holat taxmin qilinadi, lekin uning aksi bo‘lishi mumkinligini yetarli dalillar bilan isbotlash mumkin bo‘ladi. Prezumpsiyaning huquq manbayi sifatidagi ahamiyati shundan iboratki, u faktik dalillar asosida rad etilmaguncha, umummajburiy yuridik ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, unda belgilangan holatlar istisnolar mavjudligi isbotlanmaguncha, barcha uchun tegishli bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Shu o‘rinda prezumpsiyalarning *huquqiy prinsiplar* bilan o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin. Huquqiy prinsiplar bu huquq normlarida aks etuvchi bosh g‘oya hamda qoidalar hisoblanadi va aynan ushbu prinsiplardan kelib chiqqan holda huquq tizimi yaratiladi va uning bajarilishi barcha uchun majburiy bo‘ladi. Huquqiy prezumpsiyalarning qo‘llanishi ham barcha uchun majburiy hisoblanadi, lekin uning huquqiy prinsiplardan farqli jihati, prezumpsiyalarni yetarli dalillar asosida rad etish

¹ Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2021. – 187-188-bet.

mumkin. Lekin shuni ham qayd etib o'tish joizki, ayrim prezumpsiyalar *huquqiy prinsiplar sifatida* ham qayd etiladi, bu ularning ahamiyatidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra prezumpsiyalarni huquqiy prinsiplarning bir turi sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Prezumpsiyalarning majburiyligi muayyan vaqtgacha amal qiladi va ma'lum harakat sodir etilganidan so'ng, u o'z kuchini yo'qotadi.

Prezumpsiyaga misol sifatida ular orasida eng keng tarqalgani *aybsizlik prezumpsiyasini* keltirishimiz mumkin. Ushbu prezumpsiyaning mohiyati shundaki, bunga ko'ra gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda aybi isbotlanib, bu bo'yicha chiqarilgan sudning hukmi kuchga kirmaguncha u aybsiz hisoblanadi. Shaxs o'zining aybdor emasligini isbotlashga majbur emas. Bunda uning aybdorligini isbotlash majburiyati sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasida bo'ladi. Mazkur prezumpsiya huquqiy prinsipga aylanib, barcha davlatlarning huquqiy tizimlarida aks etgan hamda xalqaro darajada mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 11-moddasining 1-qismida** shunday deyiladi: *"Jinoyat sodir etishda ayiblanayotgan har bir insonga himoya uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilib, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yo'l bilan uning ayibdorligi aniqlanmaguncha, u beayb deb hisoblanish huquqiga egadir"*². Bundan tashqari bir qancha noodatiy va boshqa huquqiy tizimlar uchun tegishli bo'lmagan prezumpsiyalar ham mavjud. Bularga misol qilib, g'arazlilik prezumpsiyasi, beparvolik prezumpsiyasi hamda egalikka asoslangan mulkchilik prezumpsiyalarini keltirishimiz mumkin.

Endi bevosita prezumpsiyalarning turlariga to'xtaladigan bo'lsak, huquqiy prezumpsiyalar amal qilish doirasi bo'yicha quyidagi turlar bo'linadi:

I. Umumhuquqiy prezumpsiyalar. Bunda prezumpsiyalar muayyan huquq sohasiga tegishli bo'lmay, balki barcha huquq sohalari uchun qo'llaniladi. Bunga misol sifatida halollik prezumpsiyasini keltirishimiz mumkin. Bunda barcha ishlarning halol va vijdonan bajarilishi taxmin qilinadi.

II. Maxsus prezumpsiyalar. Mazkur turga oid prezumpsiyalar faqatgina muayyan bir huquq sohasiga tegishli bo'ladi va aynan shu soha doirasida qo'llaniladi. Masalan, soliq huquqida soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi yoki fuqarolik huquqi sohasida ayblilik prezumpsiyasi.

Bundan tashqari prezumpsiyalar huquqiy mustahkamlanganlik faktiga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bunga ko'ra:

a) faktik, ya'ni huquqiy normalarda o'z aksini topmagan, qonun hujjatlarida bevosita belgilab qo'yilmagan, yuridik ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin muayyan ishlarda inobatga olinadigan prezumpsiyalar;

² https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

b) qonuniy prezumpsiyalar, ya'ni qonunchilikda belgilab qo'yilgan hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan, umummajburiy xarakterdagi prezumpsiyalar;

c) preyuditsiya, ya'ni muayyan ishlar bo'yicha oldin sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki qarorlari bilan o'rnatilgan faktik dalillar va tekshiruvlarni ayni vaqtda ishni ko'rib chiqayotgan sudlar tomonidan tan olishning majburiyligiga oid prezumpsiyalar kabi turlarga bo'linadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, preyuditsiya huquqiy prezumpsiyalarning bir turi hisoblanadi. **Preyuditsiya** lotincha "*praejudicialis*" so'zidan olingan bo'lib "*oldingi sud qaroriga taalluqli*" degan ma'noni anglatadi³. Preyuditsiya – bu ishni ko'rayotgan barcha sudlar *dalillarni tekshirmasdan*, ilgari sudning qonuniy kuchga kirgan boshqa ish bo'yicha qarori bilan *aniqlangan faktlarni qabul qilish* majburiyati hisoblanadi.

Uning ikki xil huquqiy tizimga ega bo'lgan davlatlarda, xususan, Buyuk Britaniya, AQSh hamda Rossiyada qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, Buyuk Britaniya va AQSh huquqiy tizimidagi preyuditsiya masalasini sud pretsedentidan farqlash lozim. **Sud pretsedenti** bu umumiy huquq tizimi (anglo-sakson huquqiy tizimi)da tan olingan huquq manbalaridan biridir. Bunga ko'ra muayyan ishni ko'rayotgan sud bundan oldin qabul qilingan va shu ishga bevosita o'xshash bo'lgan *sud qarorlaridan* kelib chiqib qaror qabul qiladi. **Preyuditsiyada** esa sud avvalgi sud qarori bilan tasdiqlangan *faktik dalillarning* to'g'rligini e'tirof etadi.

Buyuk Britaniyada sudning oldingi qarorlari muhim ahamiyatga ega, ammo ayblanuvchini va uning himoyachisini jinoyatni rad etish huquqidan mahrum qilmaydi, ya'ni ularning sud hukmi ustidan *shikoyat qilish huquqini cheklamaydi* va sudni ushbu shikoyatlarni ko'rib chiqish majburiyatidan ozod qilmaydi. Bundan tashqari, Britaniyada jinoiy ishlar hakamlar hay'atining yurisdiksiyasiga bog'liq bo'lib, ular hukm chiqarishda faqat o'z aql-idroki va vijdoniga asoslanadi va adolat prinsipidan kelib chiqqan holda qaror chiqaradi⁴.

AQShda esa sud hukm(qarorlari) preyuditsiyali va preyuditsiyasiz kabi turlarga bo'linadi hamda preyuditsiyaning qo'llanilishi shunga qarab belgilanadi. Agarda sud hukmi **preyuditsiyasiz** bo'lsa, sud hukmi ustidan sudlanuvchi va uning himoyachisi bilan birgalikda tergovchi, prokuror ham shikoyat kiritishi yoki protsest keltirishi mumkin⁵. Ya'ni sud tomonidan asosli deb topilgan dalillarning haqiqiyliigi ishtisno qilinishi mumkin. Agarda sud hukmi **preyuditsiyali** bo'lsa, bu hukm bilan tasdiqlangan barcha dalillar asosli hisoblanadi va uning ustidan shikoyat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Xususan, biror shaxsni oqlab chiqarilgan hukmlar, odatda, preyuditsiyali

³ The Oxford English Dictionary - 1933 - All Volumes.

⁴ Qarang: [https://en.wikipedia.org/wiki/Prejudice_\(legal_term\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Prejudice_(legal_term))

⁵ Qarang: <https://www.mhc.ie/glossary/without-prejudice>

hukm hioblanadi. Bu amaliyot ko‘pincha sudlarning mustaqilligini ta’minlash va ular chiqar hukm(qaror)larning qat’i ijrosini ta’minlash maqsadida ishlatiladi.

Rossiya qonunchiligida preyuditsiya tushunchasi Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-moddasi, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy protsessual kodeksining 64-moddasi hamda Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining 69-moddasi bilan belgilab qo'yilgan. Xususan: *“Fuqarolik, arbitraj yoki ma'muriy ish yuritish doirasida qabul qilingan qonuniy kuchga kirgan hukm yoki sudning qonuniy kuchga kirgan boshqa qarori bilan aniqlangan holatlar sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan qo'shimcha tekshirilmasdan tan olinadi”*⁶, – deyiladi **Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-moddasida**. Mazkur moddaga batafsilroq sharh beradigan bo'lsak, mazkur holatda boshqa ish bo'yicha qonuniy kuchga kirgan hukmning haqiqatga oid ekanligini inkor etilishi mumkin bo'lgan prezumpsiya nazarda tutilgan. Fikrimizcha, agar avvalgi hukmda belgilangan holat(fakt)lar sudda ko'rilayotgan yangi ish bo'yicha tekshirilgan dalillarga zid bo'lsa, ular sud tomonidan *aniqlangan fakt* sifatida qabul qilinmaydi, balki qayta tekshirilishi kerak. Sud faqat o'zining ichki ishonchiga mos keladigan holatlarni *aniqlangan* deb topishga haqli. Mazkur qoida ishni hal qilishda ichki ishonchni talab qiladigan masalalarda *boshqa sudlarning hal qiluv qarorlariga emas*, balki faqat qonunga bo'ysunadigan sudlarning mustaqilligi prinsipiga asoslanadi. Shu bilan birga, ilgari chiqarilgan hukmning haqiqiyligiga shubha qilish huquqiga faqat sud egadir, lekin prokuror, tergovchi va surishtiruvchi bu huquqqa ega emas. Avvalgi ish bo'yicha qonuniy kuchga kirgan hukm har qanday holatda ham, majburiydir, ya'ni uning ustidan, agar yangi aniqlangan holatlar mavjud bo'lmasa, shikoyat qilish mumkin emas. Bu, albatta, sudlanuvchi va uning himoyachisiga ham tegishli, ya'ni ular sud hukmi ustidan shikoyat qiladigan bo'lishsa, sud avvalgi dalillarga asoslanib ularning ishini ko'rib chiqishni rad etadi. Aynan shu o'rinda Rossiyadagi mavjud preyuditsiyani qo'llash amaliyotining ba'zi bir *huquqiy prinsiplarga zid kelishini* ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Preyuditsiyani amaliyotda qo'llash bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Romano-german huquqiy tizimida preyuditsiyaga asoslangan prezumpsiyalardan foydalanilmaydi degan ba'zi olimlarning fikrlari o'rinsizdir, biz buni Rossiya qonunchiligi misolida ko'rib chiqdik, hattoki, bu anglo-sakson huquqiy tizimlariga qaraganda ancha qattiqroqdir. Buyuk Britaniya va AQSh kabi anglo-sakson mamlakatlarida ham preyuditsiyalardan keng foydalaniladi.

⁶ Qarang: Статья 90 УПК РФ. Преюдиция. <https://rulaws.ru/upk-rf/CHAST-PERVAYA/Razdel-III/Glava-11/Statya-90/>

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham prezumpsiyalardan keng foydalaniladi. Bunga bir qancha misollar keltirishimiz mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi 1-qismida aybsizlik prezumpsiyasi bevosita belglab qo'yilgan: *"Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi"*⁷.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining *"Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"*gi qonunining 10-moddasida mualliflik prezumpsiyasi belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra, asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi *Soliq kodeksining 13-moddasida* soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi mustahkamlab qo'yilgan. Bunga ko'ra Soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

O'zbekistonda Respublikasida ham preyditsiya amaliyotidan qisman bo'lsa-da, foydalaniladi. Xususan, **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 455-moddasida** hukmning qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga oid talablar belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra, hukm qonunning barcha talablariga amal qilingan holda va qonun asosida chiqarilgan bo'lsa, *qonuniy* deb e'tirof etiladi. Hukm ishning haqiqiy holatlari unda kerakligicha to'la va yuz berganiga haqiqatan monand tarzda aniqlangan bo'lsa, *asosli* deb e'tirof etiladi. Hukm aybdorga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va uning shaxsi e'tiborga olinib tayinlangan bo'lsa, aybsiz shaxs esa oqlangan va reabilitatsiya etilgan bo'lsa, *adolatli* deb e'tirof etiladi. Shuningdek, **"Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"**gi Oliy Sud plenum qarorining 21-bandiga muvofiq: *"Apellatsiya instansiyasi sudi, agar chiqarilgan hukm JPK 455-moddasi talablariga muvofiq ekanligini aniqlasa, uni o'zgarishsiz qoldiradi"*⁸. Demak, yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga ham preyditsiyaning belgilari mavjud. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida ham avvalgi sudlar tomonidan tan olingan dalillar boshqa sudlar tomonidan asosli deb faraz qilinadi. Bu esa preyditsiyaga oid prezumpsiyaning ayni ko'rinishidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, prezumpsiya ma'lum faktlarni inobatga olishda qo'llaniladigan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan farazdir. Uning bir turi sifatida preyditsiya romano-german hamda anglo-sakson huquiy tizimlarida ham qo'llaniladi. Preyditsiyadan foydalanishning belgilari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham mavjud.

⁷ <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁸ <https://lex.uz/docs/-5407628#-5410354>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2021. – 248 bet.
2. The Oxford English Dictionary - 1933 - All Volumes
3. https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf
4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Prejudice_\(legal_term\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Prejudice_(legal_term))
5. <https://www.mhc.ie/glossary/without-prejudice>
6. Статья 90 УПК РФ. Преюдиция. <https://rulaws.ru/upk-rf/CHAST-PERVAYA/Razdel-III/Glava-11/Statya-90/>
7. <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. <https://lex.uz/docs/-5407628#-5410354>